

Rustamova Rushona Baxramjonovna,
Andijon shahridagi Prezident maktabi Ma'naviy-
ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

TANQIDIY FIKRLASH VA TADQIQOT METODLARINING O'QITISH JARAYONIDAGI O'RNI VA ROLI (ANDIJON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI MISOLIDA)

UO'K: 37.02

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_8_8](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_8_8)

RUSTAMOVA R.B. TANQIDIY FIKRLASH VA TADQIQOT METODLARINING O'QITISH JARAYONIDAGI O'RNI VA ROLI (ANDIJON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI MISOLIDA)

Ushbu maqola Andijon shahridagi Prezident maktabi misolida tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarining o'qitish jarayonidagi o'rni va rolini o'rganadi. STEAM yo'nalishidagi ta'lim dasturlari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va xalqaro standartlar asosidagi o'qitish usullarining o'quvchilar muvaffaqiyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili orqali zamonaviy ta'limda tanqidiy fikrlashning ahamiyati, uning o'quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'z va tushunchalar: tanqidiy fikrlash, tadqiqot metodlari, Prezident maktablari, STEAM ta'limi, innovatsion pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifati.

РУСТАМОВА Р.Б. МЕСТО И РОЛЬ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МЕТОДОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕЗИДЕНТСКОЙ ШКОЛЫ В ГОРОДЕ АНДИЖАНЕ)

В данной статье рассматривается роль и роль критического мышления и исследовательских методов в процессе обучения на примере Президентской школы города Андижана. Анализируется влияние образовательных программ, ориентированных на STEAM, инновационных педагогических подходов и методов обучения, основанных на международных стандартах, на успеваемость учащихся. Посредством анализа литературы рассматривается значение критического мышления в современном образовании, его роль в развитии компетенций учащихся.

Ключевые слова и понятия: критическое мышление, методы исследования, Президентские школы, STEAM образование, инновационная педагогика, компетентностный подход, качество образования.

RUSTAMOVA R.B. THE PLACE AND ROLE OF CRITICAL THINKING AND RESEARCH METHODS IN THE TEACHING PROCESS (ON THE EXAMPLE OF THE PRESIDENTIAL SCHOOL IN ANDIJAN)

This article explores the role and role of critical thinking and research methods in the teaching process using the example of the Presidential school in Andijan. The impact of STEAM-oriented educational programs, innovative pedagogical approaches, and international standards-based teaching methods on student success is analyzed. Literature analysis examines the importance of critical thinking in modern education, its role in the development of student competencies.

Key words and concepts: critical thinking, research methods, Presidential Schools, STEAM education, innovative pedagogy, competency approach, quality of Education.

Kirish.

Zamonaviy dunyoda tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalari yoshlarning asosiy kompetensiyalariga aylanmoqda. Yosh avlodni kelajakdagi kasblarga tayyorlash, kreativ fikrlashni rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir¹. Ta'lim jarayoniga kreativlikni tatbiq etish nafaqat bilim berish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, ularda yangi g'oyalarni ilgari surish va amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi².

2019 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Prezident maktablarini tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan mamlakat ta'lim tizimida yangi bosqich boshlandi³. Prezident maktablari mamlakat intellektual salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni xalqaro standartlarga mos ravishda o'qitish maqsadida tashkil etildi. Andijon shahridagi Prezident maktabi 2021-yil 28-oktabr kuni ochilgan zamonaviy ta'lim muassasasi bo'lib, u STEAM yo'nalishiga asoslangan o'quv dasturlari bilan faoliyat yuritmoqda⁴.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Andijon shahridagi Prezident maktabi misolida tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarining o'qitish jarayonidagi o'rni va rolini o'rganish, bu yondashuvlarning o'quvchilar bilim darajasi va kognitiv ko'nikmalariga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada zamonaviy ta'limda tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarining ahamiyati, ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish usullari va bu sohadagi global tendensiyalar ko'rib chiqiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan bo'lib, tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarining o'qitish jarayonidagi o'rni va rolini tushunish uchun nazariy va amaliy

manbalarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning ilmiy nashrlaridagi maqolalar, monografiyalar, ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va Andijon shahridagi Prezident maktabi to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Facione (2021) tanqidiy fikrlashni «maqsadli, o'zini o'zi tartibga soluvchi muhokama» deb ta'riflaydi va uning tarkibiy qismlariga tahlil, baholash, xulosalash, tushuntirish va o'zini o'zi tartibga solishni kiritadi⁵. Paul va Elder (2020) tanqidiy fikrlashni «faol va mohirona tarzda tushunchalarni shakllantirish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash orqali o'z fikrlash jarayonini takomillashtirish san'ati» deb ta'riflaydi⁶.

O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari Abdurakhmanova (2019), Ismailov (2021) va Yusupov (2022) kabi olimlarning ishlarida ko'rib chiqilgan⁷. Ularning tadqiqotlari ko'rsatishicha, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlari o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish va global raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

STEAM ta'lim yondashuvi bo'yicha xorijiy tajriba Bybee (2013) va Yakman (2008) ishlarida o'rganilgan⁸. Ular STEAM ta'limining o'quvchilar ijodiy fikrlashi, muammolarni hal qil-

⁵ Facione, P. A. (2021). Critical thinking: What it is and why it counts. Insight Assessment, 2(1), 1-23.

⁶ Paul, R., & Elder, L. (2020). Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life (3rd ed.). Foundation for Critical Thinking.

⁷ Abdurakhmanova, G. (2019). O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar. Ta'lim va Innovatsiyalar, 3(2), 45-58.

Ismailov, T. (2021). Zamonaviy ta'lim va xalqaro standartlar: nazariya va amaliyot. O'zbekiston Pedagogik Fanlari Akademiyasi Nashri, 5(3), 112-125.

Yusupov, A. (2022). O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish: muammolar va yechimlar. Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 8(4), 78-92.

⁸ Bybee, R. W. (2013). The case for STEM education: Challenges and opportunities. NSTA press.

Yakman, G. (2008). STEAM education: An overview of creating a model of integrative education. In Pupils' Attitudes Towards Technology (PATT-19) Conference: Research on Technology, Innovation, Design & Engineering Teaching, Salt Lake City, Utah, USA.

¹ "Muvaffaqiyatli islohotlar - yuqori natijalar" mavzusida xalqaro konferensiya Toshkent 2024-yil 7-iyun.

² Umarova X. Ijodiy pedagogika: ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent: 2025-yil 4-aprel.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi «Prezident maktablarini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4199-son Qarori.

⁴ Andijon shahridagi Prezident maktabi rasmiy telegram kanali. (2025). - <https://t.me/andijonprezidentschool>

ish ko'nikmalari va fanlararo yondashuvni rivojlantirishdagi samaradorligini ta'kidlaydilar.

Prezident maktablari ta'lim tizimidagi yangi tajriba sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni bilan belgilangan strategik maqsadlarga muvofiq tashkil etilgan¹. Ushbu konsepsiya ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish va o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Tadqiqotning obyekti Andijon shahridagi Prezident maktabi.

Tadqiqotning predmetini Prezident maktabda tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarining o'qitish jarayonidagi o'rni va rolini tashkil qiladi

Tadqiqotda tizimlilik, umumiylik, qiyosiy-tahlildan foydalanildi. Tadqiqotning empirik manbasini anketa va so'rovnomalarning natijalari tashkil etdi.

Natijalar va muhokama.

Ko'plab tadqiqotlar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi bilan ta'lim sifati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Facione (2011) ta'kidlashicha, tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchilar axborotni chuqurroq tahlil qiladi, muammolarni samaraliroq hal etadi va mustaqil qarorlar qabul qiladi². Bu esa ularning akademik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Andijon shahridagi Prezident maktabida tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarini ta'lim jarayoniga izchil integratsiya qilish natijasida bir qator samarali natijalarga erishildi.

Yakunlangan 2024/2025 o'quv yilida maktabni 24 nafar o'quvchi muvaffaqiyatli tamomladi. Bitiruvchilarning barchasi 100 foizlik ko'rsatkichda xalqaro ingliz tili bo'yicha IELTS imtihonidan yuqori natijalarga erishdi. Eng yuqori ball – 8.0, eng quyi ball esa – 7.0 ni tashkil etdi. Shuningdek, 19 nafar bitiruvchi SAT xalqaro akademik testidan yuqori natija ko'rsatdi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmoni.

² Facione, P.A. (2021). Critical thinking: What it is and why it counts. Insight Assessment, 2(1), 1-23.

G'anijonov Azizbek Qatardagi Jorjtaun universitetiga 100% grant, Grant miqdori \$336,800, Koreya Respublikasining KAIST universitetiga 100% grant, grant miqdori \$35,000, Koreya Respublikasining birinchi raqamli o'qishi Seul Milliy Universitetiga qabul qilindi. Ro'ziqulov Og'abek Koreya Respublikasining eng nufuzli 3ta universitetidan biri bo'lgan Koreya Universitetiga qabul qilindi, Muslimbek Zaynobidinov Rossiya Federatsiyasining "Oliy iqtisodiyot maktabi" Milliy tadqiqot universiteti (Higher School of Economics)da ta'lim olish uchun to'liq grantni qo'lga kiritdi. Grant miqdori \$34,000, Qobuljonov Javohir Vengriyaning birinchi raqamli universiteti Debrecen Universitetiga 100% asosida o'qishga qabul qilindi, Ne'matov Biloliddin Koreya Respublikasining eng nufuzli 3ta universitetidan biri bo'lgan Koreya Universitetiga qabul qilindi.

To'rayeva Shirina - Raqamli avlod qizlari—2025» Respublika tanlovi g'olibi ta'lim sayohati uchun AQSHda bo'lib, mazkur sayohat davomida MIT, Garvard kabi universitetlarda yetakchi ekspert va professorlar ishtirokida davra suhbatlarida qatnashib qaytdi.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'limi tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bybee (2013) ta'kidlashicha, STEAM yondashuvi o'quvchilarni amaliy muammolarni hal qilishga, ijodiy yechimlar izlashga va fanlararo bog'liqliklarni anglashga undaydi³.

Andijon shahridagi Prezident maktabida darslar STEAM yo'nalishiga oid o'quv qo'llanmalar va darsliklar orqali olib boriladi. Maktab standart texnik jihozlar hamda nazariy bilimlarni amalda mustahkamlash uchun maxsus ishlab chiqilgan uskunalar bilan jihozlangan. Sinfxonalar SMART doskalar bilan jihozlangan, o'quvchilar kompyuter laboratoriyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu esa o'quvchilarning nazariy bilimlarni amalda qo'llash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kitobxonlik madaniyati tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Paul va Elder (2020) ta'kidlashicha, kitob o'qish jarayonida

³ Bybee, R.W. (2013). The case for STEM education: Challenges and opportunities. NSTA press.

1-jadval. Andijon shahridagi Prezident maktabida 10-sinf bitiruvchilarini 2024 yil may-iyun oylarida o'tkazilgan xalqaro AS Level imtixon natijalari bo'yicha (A*, A, B, C) baho olgan o'quvchilar tahliliy jadvali¹

Maktab nomi	Mathematics	Physics	Chemistry	Biology	Computer Science	Economics
Andijon shahridagi Prezident maktabi (2024-yil, may-iyun imtihoni 10-sinf o'quvchilari)	96	100	100	100	95	78
Dunyo bo'yicha fanlardan imtixon topshirganlarni o'rtacha ko'rsatkichi	60,8	62,9	63,2	56,3	40,6	58,5
Andijon shahridagi Prezident maktabi o'quvchilari ko'rsatkichi Dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan farqi	+35,2	+37,1	+36,8	+43,7	+54,4	+19,5

o'quvchilar axborotni tanqidiy idrok etish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi².

Andijon shahridagi Prezident maktabida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Masalan, 6-sinf o'quvchilari bilan Otabek Quvvatovning «Olimjonning sarguzashtlari» asari bo'yicha mutolaa qilingan va asar bo'yicha bellashuv tashkil etilgan. Bu jarayonda o'quvchilar asarning mazmunini tahlil qilish, qahramonlar xarakterini baholash va asarning asosiy g'oyalarini muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirganlar.

Xalqaro ta'lim standartlarida tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalari XXI asr kompetensiyalari sifatida alohida ajratib ko'rsatiladi. Ismailov (2021) ta'kidlashicha, xalqaro standartlarga asoslangan ta'lim dasturlari o'quvchilarning global raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi³.

Andijon shahridagi Prezident maktabi bitiruvchilari Cambridge Assessment tomonidan tashkil etiladigan imtihonlarni topshiradi. Bu esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro standartlarga muvofiq baholash imkonini beradi. Shuningdek, maktabda o'quvchilar xalqaro olimpiadalarda va fan musobaqalarida ishtirok etadilar, bu esa ularning tanqidiy fikrlash va tadqiqot

ko'nikmalarini amalda qo'llash imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun avvalo o'qituvchilar bu ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Yusupov (2022) ta'kidlashicha, o'qituvchilarning kasbiy mahorati va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi⁴.

Andijon shahridagi Prezident maktabida dars berish uchun 30 nafar tajribali pedagoglar jalb qilingan, shulardan 8 nafari xorijlik mutaxassislar hisoblanadi. Bu esa o'quv jarayoniga xalqaro tajribani joriy etish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash va o'qitish sifatini oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini yangi darajaga ko'tarmoqda. Andijon shahridagi Prezident maktabidagi SMART doskalar, kompyuter laboratoriyalari va raqamli ta'lim resurslari o'quvchilarning axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Raqamli muhitda mavjud bo'lgan katta hajmdagi axborot oqimi o'quvchilarni tanqidiy va analitik tarzda fikrlashga undaydi.

O'quvchilar turli xil ma'lumot manbalarining ishonchliligini baholash, faktlarni noto'g'ri ma'lumotlardan ajratish va axborotni tahliliy qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon topadilar. Prezident maktabidagi o'quv jarayoniga elektron kutubxonalar, online

¹ Sobirov Avazbek Anvarovich. "Kembrij AS va A-Level imtihonlari va dasturning afzalliklari (Andijon Shahridagi Prezident maktabi tajribasida)" // "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnali. 2024, 11 (144).

² Paul, R., & Elder, L. (2020). Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life (3rd ed.). Foundation for Critical Thinking.

³ Ismailov T. (2021). Zamonaviy ta'lim va xalqaro standartlar: nazariya va amaliyot. - O'zbekiston Pedagogik Fanlari Akademiyasi Nashri, 5(3), 112-125.

⁴ Yusupov A. (2022). O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish: muammolar va yechimlar. // Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 8(4), 78-92.

ma'lumotlar bazalari va o'quv platformalari integratsiya qilingan bo'lib, bu esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini raqamli kontekstda rivojlantirish imkonini beradi.

Andijon shahridagi Prezident maktabida qo'llaniladigan baholash tizimlari ham o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. An'anaviy test sinovlari o'rniga, maktabda loyiha-tadqiqot ishlari, amaliy vazifalar, portfolio tayyorlash kabi baholash usullaridan keng foydalaniladi. Bu esa o'quvchilarni o'z bilimlarini amalda qo'llashga, muammolarni mustaqil hal qilishga va o'z ishlarini tanqidiy baholashga undaydi.

Shuningdek, o'z-o'zini baholash va tengdoshlar tomonidan baholash usullari ham qo'llaniladi, bu o'quvchilarda refleksiv tafakkurni, tanqidiy analiz qobiliyatini va konstruktiv feedback berish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Prezident maktabidagi ta'lim jarayoni global kontekstni hisobga olgan holda tashkil etilgan. O'quvchilar jahon muammolari, xalqaro tendensiyalar va global muammolar bo'yicha o'z fikrlarini shakllantirishga o'rganadilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini global miqyosda rivojlantirishga yordam beradi.

Masalan, ekologik muammolar, global iqlim o'zgarishi, raqamli transformatsiya kabi global mavzular o'quv dasturiga integratsiya qilingan bo'lib, o'quvchilar bu masalalarni kompleks tahlil qilish, turli mamlakatlar tajribasini o'rganish va global muammolarga yechimlar taklif qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Yuqoridagi aspektlar Andijon shahridagi Prezident maktabida tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarining o'qitish jarayonidagi o'rni va rolini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini oshirish, balki XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish, global raqobatbardoshlikni ta'minlash va kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Adabiyotlar tahlili asosida Andijon shahridagi Prezident maktabi misolida tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarining o'qitish jarayonidagi o'rni va roli quyidagicha baholanishi mumkin:

1. Tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlari zamonaviy ta'limning asosiy komponenti hisoblanadi va o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

2. STEAM ta'limi yondashuvi tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Andijon shahridagi Prezident maktabida STEAM yo'nalishiga asoslangan o'quv dasturlari, zamonaviy texnik jihozlar va innovatsion pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

3. Kitobxonlik madaniyati tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Andijon shahridagi Prezident maktabida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari, badiiy asarlar muhokamasi va bellashuvlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Xalqaro standartlarga asoslangan ta'lim dasturlari o'quvchilarning global raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Andijon shahridagi Prezident maktabida Cambridge Assessment imtihonlari, xalqaro olimpiadalar va fan musobaqalari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini amalda qo'llash imkoniyatini beradi.

5. O'qituvchilarning kasbiy mahorati va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Andijon shahridagi Prezident maktabida tajribali mahalliy va xorijiy mutaxassislarning jalb etilishi o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o'qitish sifatini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, Andijon shahridagi Prezident maktabi misolida tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarining o'qitish jarayonidagi o'rni va rolini o'rganish natijasida shuni aytish mumkin, bu yondashuvlar o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish va global raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida tanqidiy fikrlash va tadqiqot metodlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi «Prezident maktablarini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4199-son Qarori.
3. Andijon shahridagi Prezident maktabi rasmiy telegram kanali. (2025). - <https://t.me/andijonprezidentschool>
4. Facione, P.A. (2021). Critical thinking: What it is and why it counts. Insight Assessment, 2(1), 1-23.
5. Paul, R., & Elder, L. (2020). Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life (3rd ed.). Foundation for Critical Thinking.
6. Abdurakhmanova, G. (2019). O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar. Ta'lim va Innovatsiyalar, 3(2), 45-58.
7. Ismailov T. (2021). Zamonaviy ta'lim va xalqaro standartlar: nazariya va amaliyot. - O'zbekiston Pedagogik Fanlari Akademiyasi Nashri, 5(3), 112-125.
8. Yusupov A. (2022). O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish: muammolar va yechimlar. // Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 8(4), 78-92.
9. Bybee, R.W. (2013). The case for STEM education: Challenges and opportunities. NSTA press.
10. Yakman, G. (2008). STEAM education: An overview of creating a model of integrative education. In Pupils' Attitudes Towards Technology (PATT-19) Conference: Research on Technology, Innovation, Design & Engineering Teaching, Salt Lake City, Utah, USA.